

ATROF-MUHITGA YETKAZILGAN ZARARNI BAHOLASH VA KOMPENSATSIYA QILISH: XALQARO HUQUQIY ASOSLAR VA MUAMMOLAR

TDYU magistratura bosqichi talabasi
Turg'unboyev Abrorjon Karimjon o'g'li
Email address: Tabror054@gmail.com
Tel: 998 99 4715166

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada atrof-muhitga yetkazilgan zararni baholash va kompensatsiya qilishning xalqaro huquqiy asoslari hamda ushbu sohadagi asosiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda atrof-muhitga yetkazilgan ekologik zararning turli shakllari, ularni baholash metodologiyasi va kompensatsiya mexanizmlarining hozirgi holati ko'rib chiqilgan. Xalqaro sud amaliyoti tahlili asosida zamonaviy xalqaro huquqda mavjud bo'lgan kamchiliklar va ularni bartaraf etishning mumkin bo'lgan yo'llari aniqlangan. Maqolada davlatlarning atrof-muhit sohasidagi javobgarligi, "ifloslantiruvchi to'laydi" prinsipi va kompensatsiya fondlarining ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: atrof-muhit zararini baholash, ekologik kompensatsiya, transchegaraviy zarar, xalqaro atrof-muhit huquqi, davlatlar javobgarligi va "ifloslantiruvchi to'laydi" prinsipi.

ANNOTATION

This article analyzes the international legal foundations for assessing and compensating environmental damage, as well as the main problems in this field. The research examines various forms of transboundary ecological damage, methodologies for their assessment, and the current state of compensation mechanisms. Based on the analysis of international judicial practice, existing shortcomings in modern international law and possible ways to eliminate them are identified. The article particularly emphasizes state responsibility in environmental matters, the "polluter pays" principle, and the importance of compensation funds.

Keywords: environmental damage assessment, ecological compensation, transboundary damage, international environmental law, state responsibility and the "polluter pays" principle.

KIRISH

XXI asrda atrof-muhit muammolarining global xarakteri kuchayib borishi bilan atrof-muhitga yetkazish, transchegaraviy ekologik zararni baholash va kompensatsiya qilish masalalari xalqaro huquqning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda insoniyat jiddiy ekologik muammolarga duch kelmoqda. Fuqarolar, davlat va butun dunyo ekologik xavfsizlik talablarini bilsada, ularga amal qilmaslik hollari ko'paymoqda. Natijada tabiat va insoniyat o'rtasida bog'liqlik uzilmoqda. Sanoat rivojlanishi, texnologik taraqqiyot va urbanizatsiya jarayonlari natijasida yuzaga keladigan atrof-muhit zararining ko'lami va murakkabligi tobora ortib bormoqda.

Atrof-muhitga yetkazilgan zararni baholash va kompensatsiya qilish muammosi faqat texnik-iqtisodiy masala emas, balki chuqur huquqiy, siyosiy va axloqiy jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Xalqaro huquqda bu masala davlatlarning suverenitet prinsipi bilan atrof-muhitni himoya qilish majburiyati o'rtasidagi muvozanatni topish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda xalqaro ekologiya huquqida zararni baholash va kompensatsiya qilishning yagona, barcha davlatlar tomonidan qabul qilingan metodologiyasi mavjud emas. Bu holat nazariy va amaliy jihatdan jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

ATROF-MUHIT ZARARINI BAHOLASHNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

Xalqaro huquqda atrof-muhit zararini aniqlash masalasi Xalqaro Huquq Komissiyasining 2001-yilgi "Transchegaraviy zarar yetkazmaslik majburiyatining buzilishi natijasida davlatlar javobgarligi" bo'yicha loyihasida¹ quyidagicha talqin etilgan:

"Atrof-muhit zarari" - bu tabiiy muhitning fizik, kimyoviy yoki biologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, uning ekologik funksiyalarini buzuvchi yoki inson salomatligiga zarar yetkazuvchi har qanday o'zgarish hisoblanadi deb ta'riflanagan.

Nemis huquqshunosi Hans Jonas o'zining "Mas'uliyat prinsipi" asarida ta'kidlaganidek, zamonaviy texnologik rivojlanish sharoitida insoniyat kelajak avlodlar oldida mas'uliyat yuklaydi². Bu qarash atrof-muhit zararini baholashda vaqt omilining muhimligini ko'rsatadi. Ushbu fikrlarga qo'shilganda holda, bu texnologiya asri insonga ko'pgina yengilliklar bermoqda, lekin shunga mutanosib ravishda atrof-muhitga xavf solib, tabiiy muhitning zaiflashuvi va yo'qotilishiga ham sabab bo'lmoqda.

Baholash metodologiyasining xalqaro standartlari.

Hozirgi kunda xalqaro huquqda atrof-muhit zararini baholashning yagona metodologiyasi mavjud emas. Atrof-muhit zararini baholashning asosiy keng tarqalgan usullari quyidagilardir:

Tiklash qiymati usuli (Restoration Cost Method) - buzilgan atrof-muhit obyektlarini tiklash uchun zarur bo'lgan xarajatlar miqdori asosida zarar hajmini

¹ ILC Draft Articles on Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities. UN Doc. A/56/10, 2001.

² Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. Chicago: University of Chicago Press, 1984. P. 142.

aniqlash. Bu usul tabiiy resurslar va ekotizmni zararlanishdan oldingi tabiiy holatidagi potentsiali, kuchi va holatini tiklashga ketadigan xarajatlarni hisoblash orqali aniqlanadi. Lekin bu usul orqali atrof-muhitga yetkazilgan har qanday zararni baholashda foydalana olmaymiz. Chunki tabiiy resurslar va ekotizimlarning hammasi ham bir xil xususiyatga ega emas. Misol uchun tuproq unumdorligi yoki iqlimning o'zgarishi bir xil usul orqali baholay olmaymiz. Ba'zi ekotizimlarimiz qayta tiklanishi imkonsiz va yoki uzoq vaqt talab etadigan jarayondir.

“Tiklashni amalga oshirish xarajatlari ayniqsa quyidagi omillarga qarab juda katta farq qiladi:

passiv (masalan, tabiiy tiklanish) va aktiv (masalan, daraxt ekish) usullar orasida (Holl & Aide, 2011; Brancalion va boshq., 2016),

amalga oshirish usuli (masalan, mexanizatsiyalashgan yoki qo'lda tayyorlov ishlari, gerbitsidlar ishlatilishi),

ishlatiladigan turlar (masalan, osongina yetishtiriladigan pioner turlar yoki urug'i qimmat bo'lgan, muhofaza jihatidan muhim turlar; Brancalion va boshq., 2018), degradatsiyalangan hududni tayyorlash darajasi (Chazdon, 2008),

va loyiha davomida talab etiladigan texnik xizmat ko'rsatish muddati.

Tiklash xarajatlarini aniq hisoblash bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarga qaramay, aniq va ishonchli moliyaviy ma'lumotlar zarur. Bunday ma'lumotlar:

tiklash dasturlarini rejalashtirish va boshqarishni qo'llab-quvvatlash,

shuningdek, xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish uchun muhim ahamiyatga ega (Brancalion va boshq., 2017)”³

Iqtisodiy baholash usuli (Economic Valuation Method) - ekotizim xizmatlarining iqtisodiy qiymatini hisobga olgan holda zararni monetar ifodada baholash. Iqtisodiy baholash sog'liqni saqlash, transport va atrof-muhit kabi turli sohalarda keng qo'llanib kelinmoqda. Baholash usullaridan foydalanish soni ortib bormoqda, bunga atrof-muhit tovarlariga iqtisodiy qiymat berishni talab qilayotgan manfaatdor guruhlar, korporatsiyalar, hukumatlar va tadqiqotchilarning ko'payishi sabab bo'lmoqda.

Masalan, Jahon banki 2000-yildan 2003-yilgacha bo'lgan uch moliyaviy yil davomida har yili o'rtacha 6 dan 9 gacha atrof-muhitni iqtisodiy baholashga oid loyiha olib borgan. Tarixda atrof-muhit boyliklari, ne'matlari va funksiyalarini baholashni zarur va tezlashtirgan turli xalqaro hodisalar ham bo'lib o'tgan. Shunday voqealardan biri 1989-yilda keng ommaga ma'lum bo'lgan Exxon/Valdez neft tankeri hodisasi bo'lib, u Alyaskadagi Prince William ko'rfazida rifga urilib, kamida 11 million gallon xom neft to'kilib ketishiga sabab bo'lgan va ko'plab qushlar hamda sut emizuvchilar

³ Brancalion, Pedro HS Meli, Paula Tymus, Julio RC et al. Corrigendum to “What makes ecosystem restoration expensive? A systematic cost assessment of projects in Brazil” [Biol. Conserv. 240 (2019) 108274]. <https://escholarship.org/uc/item/0wb8b24n>. 1-3 betlar.

nobud bo'lgan edi. Ushbu to'kilgan neftni tozalashning mahalliy hudud uchun foydaliligini aniqlash jarayonida qushlar yoki biologik xilma-xillik kabi atrof-muhit boyliklariga iqtisodiy qiymat berish zarur bo'lib chiqdi, ammo bunday baho mavjud emas edi.⁴

Umuman olganda, atrof-muhit boyliklarini iqtisodiy baholash atrof-muhit iqtisodiyoti oldida turgan eng dolzarb va murakkab masalalardan biridir. Nima sababdan atrof-muhit resurslarini pulda ifodalashga ehtiyoj bor, degan savol tug'ilishi mumkin. Bunga to'rtta asosiy sabab keltirish mumkin:

- xarajat-foyda tahlilini o'tkazish,
- atrof-muhit hisob-kitobini yuritish,
- tabiiy resurslarga yetkazilgan zararni baholash,
- to'g'ri narx belgilash.

Zararni bartaraf etishni baholash usuli (Mitigation Approach) - zararining oldini olish va kamaytirishga yo'naltirilgan choralar qiymatini aniqlash. Bu usul asosan qayta tiklash yoki yumshatishga qaratilgan amaliy choralarni o'z ichiga olgan jarayonlar va xarajatlarni nazarda tutuvchi baholash usuli hisoblanadi.

AQSh huquqshunosi Richard Stewart o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, bu usullarning har biri ma'lum afzallik va kamchiliklarga ega bo'lib, ularni qo'llashda mahalliy sharoitlarni hisobga olish zarur⁵. Yuqoridagi fikrga qo'shilaman, chunki yuqoridagi usullar har qanday tabiiy resurslarga yetkazilgan zararni baholashda ma'lum bir kamchilik va to'siqlarda uchraydi. Har bir ekotizim, tabiiy boyliklarimiz har xil funksiyani bajaradi. Havo, suv, tuproq, iqlim, hayvonot va o'simliklar olami hammasi bir-biri bilan chambarchas bo'g'liq. Bu murakkab zanjirning bir bo'lagiga yetkazilgan zarar boshqalariga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Qayta tiklanmas xususiyatga ega bo'lgan ba'zi resurslarga yetkazilgan zararni baholashni ham o'rnini qoplashni ham imkoni yo'q.

KOMPENSATSIYA MEXANIZMLARINING XALQARO AMALIYOTI

Hozirgi kunda atrof-muhitga yetkazilayotgan zararlardan biri bu Rossiya-Ukraina urushi oqibatida yetkazilgan zararlardan biri nafaqat ikki davlat uchun, balki butun dunyo uchun ekologik xavfsizlikka putur yetkazishi mumkin. 2022-yil fevral oyida boshlangan Ukrainadagi keng ko'lamli urush boshlanganidan beri, ko'plab subyektlar uning atrof-muhitga ta'sirini tushunish uchun baholash ishlarini amalga oshirgan yoki amalga oshirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi va Shvetsiya hukumati mojarolar bilan bog'liq ekologik ta'sirlarning xarakteri, hajmi va ahamiyatini kuzatish va qayd etish uchun "Atrof-muhitga etkazilgan zararni baholash

⁴ ABDULLAH, S., MARKANDYA, A. and P.A.L.D. NUNES (2011) 'Introduction To Economic Valuation Methods' in Amit Batabyal & Peter Nijkamp (Eds.) Research Tools in Natural Resource and Environmental Economics, Chapter 5, pp. 143-187, World Scientific, US. B.1.

⁵ Stewart R.B. Economic Incentives for Environmental Protection: Opportunities and Obstacles // Environmental Law and Policy: Nature, Law, and Society. 4th ed. 2010. P. 234.

bo'yicha muvofiqlashtiruvchi markazni tashkil etish orqali Ukrainada uzoq muddatli ekologik ofatlar xavfini yumshatish" nomli yangi loyihani ishga tushirdi.

Loyihaning umumiy maqsadi tegishli davlat organlari – Davlat ekologiya inspeksiyasi va Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligini tabiiy ofatlarni yumshatish uchun atrof-muhitga etkazilgan zararning dalillarini, shu jumladan genderni asoslangan baholashlarni to'plash va hujjatlashtirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun zarur me'yoriy va institutsional infratuzilmani rivojlantirishda qo'llab-quvvatlashdan iborat. Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri Rossiya bosqinidan kelib chiqqan holda atrof-muhitga yetkazilgan zararni qayd etish uchun zarur qonunchilikni ishlab chiqishda davlat organlariga yordam berish, shuningdek, Ukraina bo'ylab bunday dalillarni to'plashning amaliy mexanizmlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Ukrainadagi urush nafaqat butun shaharlarni vayron qilmoqda, keng ko'lamli qurbonlar keltirmoqda va infratuzilmani vayron qilmoqda, balki atrof-muhitga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ukraina atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatning 1,2 million gektardan ortiq qo'riqlanadigan hududlarning qariyb 30 foizi harbiy harakatlardan zarar ko'rgan⁶. Ommaviy o'rmon yong'inlari kurash avj olgan sari tarqaldi, yoqilg'i va sanoat obyektlariga qilingan hujumlar kimyoviy moddalarning daryolar va yer osti suvlariga kirib borishiga olib keldi va bu kelajak avlodlar uchun zaharli merosni yaratish bilan tahdid qildi.

Kutilgan natijalar

"Loyiha mutaxassislari Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi oqibatida atrof-muhitga etkazilgan zararni tasdiqlovchi dalillarni qayd etish uchun samarali metodologiya, qonunchilik bazasi va texnik imkoniyatlarni ishlab chiqishga hissa qo'shmoqda.

Urush natijasida atrof-muhitga etkazilgan zararni gender asosida baholash o'tkaziladi va tegishli gender ma'lumotlari yig'iladi.

Aloqa kompaniyalari keng jamoatchilikni va asosiy manfaatdor tomonlarni loyiha faoliyati to'g'risida xabardor qilish, atrof-muhit muammolari bo'yicha aholining xabardorligini oshirish maqsadida o'tkaziladi.

Atrof-muhitga etkazilgan zararni o'lchash uchun sertifikatlangan mobil stansiyalar sotib olindi".⁷

Xalqaro ekologiya huquqida xalqaro odat huquqi va xalqaro shartnomalarda ma'lum bir ekologik majburiyatlar va tavsiyaviy xarakterdagi umumiy qoidalarni ko'rishimiz mumkin. Lekin yetkazilgan zararni baholash, kompensatsiya qilish va qayta tiklashni qat'iy belgilovchi xalqaro huquqiy hujjat mavjud emas. Eng keng tarqalgan prinsiplardan biri "ifloslantiruvchi to'laydi" prinsipidir.

⁶ <https://www.undp.org/ukraine/projects/environmental-damage-assessment>

⁷ O'sha manba.

“Ifloslantiruvchi to‘laydi” prinsipining tatbig‘i.

“Ifloslantiruvchi to‘laydi” (Polluter Pays Principle) prinsipi birinchi marta OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan 1972-yilda rasmiy ravishda e‘lon qilingan⁸. Bu prinsip bo‘yicha atrof-muhitga zarar yetkazgan shaxs yoki davlat ushbu zararni bartaraf etish va kompensatsiya qilish majburiyatini yuklaydi.

Fransuz huquqshunosi Michel Prieur bu prinsipni “zamonaviy atrof-muhit huquqining asosiy qoidalaridan biri” deb ta‘riflaydi⁹. Biroq, amaliyotda bu prinsipni qo‘llash bir qator muammolarga duch keladi:

- Ifloslanish manbalarini aniq aniqlash qiyinligi;
- Kumulyativ ta‘sirlar natijasida yuzaga keladigan zarar;
- Davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlari farqi.

Ifloslanish manbalarini aniqlash albatta yuqorida aytilganidek murakkabliklarga ega, chunki zarar yetkazuvchini topish va ilmiy asoslash kerak bo‘ladi, bu esa uzoq vaqt va moddiy-texnik baza muammosiga duch kelinishi tayin. Bundan tashqari davlatlarning iqtisodiy salohiyatiga ko‘ra rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga bo‘lamiz, bu tasniflash albatta xalqaro doirada majburiyatlar yoki moddiy javobgarlik yuklangandan keyin, amalda ijrosiga ta‘sir qilishi mumkin, chunki endi rivojlanayotgan davlatlar qayta tiklash va kompensatsiya to‘lovlari uchun iqtisodiy tomondan zaif bo‘lishi mumkin.

Xalqaro huquqda ikki tomonlama kompensatsiya kelishuvlari ham mavjud. Ko‘p tomonlama shartnomalardan ko‘ra ikki tomonlama shartnomalar samaraliroq hisoblanadi. Qo‘shni davlatlar o‘rtasida transchegaraviy atrof-muhit zarar bo‘yicha ikki tomonlama kelishuvlar tuzish amaliyoti keng tarqalgan. Masalan, AQSh va Kanada o‘rtasidagi “Transchegaraviy havo ifloslanishi bo‘yicha kelishuv” (1991)¹⁰ ushbu sohaning eng muvaffaqiyatli namunalaridan biridir.

Kanadiyalik huquqshunos John Swaigen ushbu kelishuvning afzalliklarini quyidagicha baholaydi:

- Tezkor muammolarni hal qilish mexanizmi;
- Mahalliy sharoitlarni hisobga olish imkoniyati;
- Diplomatik munosabatlarni saqlab qolishni taqdim etadi.

Albatta xalqaro doirada yuqoridagi ikki tomonlama ekologik kelishuvlar ko‘p tomonlama shartnomalardan ko‘ra, amalga oshirish, ijrosini ta‘minlash va nazorat qilish mexanizmlari qulayligi bilan ajralib turadi.

Ko‘p tomonlama kompensatsiya fondlari

⁸ 10. OECD Recommendation on Guiding Principles concerning International Economic Aspects of Environmental Policies. C(72)128, 1972.

⁹ Prieur M. Droit de l'environnement. 6ème éd. Paris: Dalloz, 2011. P. 167.

¹⁰ <https://ijc.org/en/mission/air-quality>

agreement#:~:text=Signed%20in%201991%2C%20The%20Canada,every%20two%20years%20on%20progress.

Xalqaro amaliyotda kompensatsiya masalalarini hal qilishning eng samarali usullaridan biri maxsus fondlar yaratish hisoblanadi. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

Xalqaro neft ifloslanish kompensatsiya fondi (IOPC Fund) - 1971 yilda tashkil etilgan ushbu fond dengiz muhitining neft bilan ifloslanishi natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash uchun mo'ljallangan.

Chernobil halokat fondlari - 1986 yilgi Chernobil AES avariyasi oqibatlarini bartaraf etish uchun turli xalqaro fondlar tashkil etilgan.

Ingliz huquqshunosi P. Sand ushbu fondlarning ahamiyatini ta'kidlab, "kollektiv javobgarlik mexanizmi sifatida ularning samaradorligi individual davlatlar imkoniyatlaridan ancha yuqori" deb yozadi.

Atrof-muhit zararini kompensatsiya qilishda sug'urta tizimlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Germaniyada qabul qilingan "Atrof-muhit javobgarligi to'g'risida"gi qonun (1990) bu sohada birinchi fundamental hujjat hisoblanadi¹¹. Nemis huquqshunosi Klaus Lange bu qonunning xususiyatlarini tahlil qilib, uning "kazuallik (sababiylik) isbotini osonlashtirish va javobgarlik chegaralarini kengaytirish" jihatidan muhimligi haqida yozadi¹².

SUD AMALIYOTI TAHLILI

Xalqaro Sud qarori tahlili

Gabcikovo-Nagymaros loyihasi ishi (Vengriya/Slovakiya, 1997)¹³

Dunay daryosining Slovakiya va Vengriya hududlarida joylashgan ikki davlat o'rtasidagi yirik gidroenergetika loyihasi qurilishi bilan bog'liq bo'lgan ish hisoblanadi. 1977-yilda ikki davlat o'rtasida shartnoma imzolangan (1977 Treaty), bunda ular loyihaning qurilishi va ekspluatatsiyasida birga ishlashga kelishishgan. 1980-yillarda Vengriya ekologik va iqtisodiy sabablar bilan Nagymaros to'g'onining qurilishini to'xtatib qo'ydi va keyinchalik loyihani butunlay tark etdi. Gabcikovo-Nagymaros ishi xalqaro ekologik huquqda davlatlar o'rtasidagi ekologik mas'uliyat va shartnoma majburiyatlarini bajarish muhimligini ko'rsatdi.

Bu ishning ekologiya bilan bog'liq jihatiga e'tibor bersak, loyihani amalga oshirish chog'ida Dunay daryosi o'zani o'zgartirilib, burilish kanali orqali suv oqimi yo'naltirilgan. Bu daryoning tabiiy ekotizimiga zarar yetkazgan: suv oqimi kamaygan, daryo yotog'i quriy boshlagan va suvsizlikdan o'simliklar, hayvonot dunyosi jiddiy ta'sir ko'rgan. Qurib qolgan eski o'zanda biologik xilma-xillik kamaygan.

Bu ish transchegaraviy ekologik zararlar uchun davlat javobgarligini tan olishda asosiy huquqiy pretsedent hisoblanadi. Sud tomonlarga muzokaralar orqali kelishuvga

¹¹ Umwelthaftungsgesetz (Environmental Liability Act), Germany, 1990. BGBl. I S. 2634.

¹² Lange K. Environmental Liability in German Law // European Environmental Law Review. 1994. Vol. 3. P. 132-138.

¹³ <https://www.icj-cij.org/case/92>

erishishni va iqlim, atrof-muhit hamda iqtisodiy manfaatlarni muvozanatlashni tavsiya etdi.

Ushbu ishda Xalqaro Sud (ICJ) birinchi marta atrof-muhit zararini baholash va kompensatsiya masalalarini batafsil ko‘rib chiqdi. Sud qarori bo‘yicha:

- Dunay daryosining ekotizimiga yetkazilgan zarar qisman qaytarib bo‘lmaydigan xarakterga ega;
- Kompensatsiya miqdorini aniqlashda kelajakdagi potentsial zararni ham hisobga olish zarur;
- Davlatlar o‘zaro hamkorlikda tiklash choralari amalga oshirishi lozim edi.

Avstraliyalik huquqshunos Patricia Birnie bu qarorni “atrof-muhit huquqidagi kompensatsiya nazariyasining rivojlanishi uchun muhim bosqich” deb baholaydi¹⁴.

Arbitraj sudlari amaliyoti

Trail Smelter arbitraji (AQSh/Kanada, 1938-1941)¹⁵

Trail Smelter — bu Britaniya Kolumbiyasida (Kanada) joylashgan Trail nomli shaharchadagi qayta ishlovchi zavod (metall eritish korxonasi). Bu zavod oltingugurt dioksid (SO₂) kabi zararli gazlarni havo orqali chiqarib yuborar edi. Shamol ta’sirida bu tutunlar AQShning Vashington shtatidagi chegaraga yaqin joylardagi qishloq xo‘jaligi yerlariga o‘tib, ekinlarga, o‘rmonlarga, hayvonlarga va mulklarga zarar yetkazgan. AQShdagi fermerlar va aholi shikoyat qilgan, shundan so‘ng AQSh hukumati rasmiy ravishda Kanada hukumatiga norozilik bildirgan. Bu xalqaro darajadagi ekologik mojaro bo‘lib, birinchi marta transchegaraviy atrof-muhit zararlari uchun davlat javobgarligi masalasi sifatida ko‘rib chiqilgan.

Bu ish transchegaraviy atrof-muhit zarar bo‘yicha birinchi xalqaro arbitraj qarori hisoblanadi. Trail shahridagi Smelterdan chiqayotgan oltingugurt tutunlari miqdori joriy yilda kamayishi kutilayotganini inobatga olgan, Komissiya AQSh manfaatlariga ushbu tutunlar tufayli yetkazilgan zararlarni uchun, 1932-yil 1-yanvargacha, qanday tovon miqdori kompensatsiya bo‘lishini aniqlashni maqsadga muvofiq deb topdi. Komissiya quyidagi xulosaga keldi: o‘tgan davrdagi barcha zararlarni, shuningdek, 1932-yil 1-yanvargacha bo‘lgan barcha zararlarni uchun tovon miqdori \$350,000 (AQSh dollari) ni tashkil etadi. Biroq, bu ko‘rsatilgan summa 1932-yil 1-yanvardan keyin yuz bergan har qanday zararni o‘z ichiga olmaydi. Trail Smelter tomonidan Vashington shtatida yetkazilgan zarar 1932-yil 1-yanvardan boshlab 1937-yil 1-oktabrgacha bo‘lgan davrda yuz bergan, va bu zarar uchun to‘lanadigan tovon miqdori yetmish sakkiz ming dollar (\$78,000) etib belgilangan. Bu summa yuqorida ko‘rsatilgan vaqt

¹⁴ Birnie P. The Gabčíkovo-Nagymaros Case: A Message for the South? // Leiden Journal of International Law. 1999. Vol. 12. P. 443-452.

¹⁵ https://legal.un.org/riaa/cases/vol_iii/1905-1982.pdf

oralig'ida yetkazilgan barcha zararlar uchun to'liq va yakuniy tovon hamda kompensatsiya hisoblanadi¹⁶.

Arbitraj:

- Kanadaning AQShga yetkazgan havo ifloslanishi zararini tan oldi;
- Kompensatsiya miqdorini aniq belgiladi;
- Kelajakda shunga o'xshash zararining oldini olish choralarini buyurdi.

AQSh huquqshunosi Edith Brown Weiss bu qarorni "transchegaraviy atrof-muhit zararining klassik namunasi" deb ta'riflaydi¹⁷.

ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA YECHIM YO'LLARI

Metodologik muammolar

Atrof-muhit zararini baholashda asosiy muammolar:

Ilmiy noaniqlik muammosi - ekotizimlarning murakkab tabiati tufayli zarar hajmini aniq baholash qiyin. Amerikalik ekolog Eugene Odum ta'kidlaganidek, "ekotizim - bu dinamik tizim bo'lib, uning bir qismidagi o'zgarish butun tizimga ta'sir qiladi"¹⁸.

Qiymatni aniqlash muammosi - tabiiy resurslar va ekotizim xizmatlarining qiymatini monetar ifodada baholash qiyinligi.

X.M.Yunusov ta'kidlaganidek, "atrof-muhit va ekologik zararining barcha tomonidan qabul qilingan ta'rifi bo'lmaganligi sababli, bugungi kunda bu kabi zararining mohiyatini, kompensatsiya tomonlarini ekologik zararlarni baholash uchun qanday mezonlar qo'yilishi lozimligini aniqlash qiyin kechmoqda"¹⁹. Haqiqatdan ham, ekotizim turlicha va ba'zilar qayta tiklanmas resurslar bo'lganligi sababli uning aniq iqtisodiy qiymatini belgilash imkonsiz.

Xalqaro atrof-muhit huquqidagi asosiy kamchiliklar:

Yurisdiksiya muammolari - transchegaraviy zararlar bo'yicha qaysi davlat sudining vakolati mavjudligi aniq emas;

Ijro etish mexanizmlarining zaifligi - xalqaro sud qarorlarini majburiy ijro etish mexanizmlari yetarli emas;

Preventiv choralar etishmasligi - mavjud huquqiy mexanizmlar asosan kompensatsiya masalalariga qaratilgan, zararining oldini olish esa yetarli darajada tartibga solinmagan. Italiyalik huquqshunos Tullio Treves bu muammolarni "xalqaro atrof-muhit huquqining institutsional zaifligi" bilan bog'laydi²⁰.

¹⁶ Reports of International Arbitral Awards: Recueil des Sentences Arbitrales. Trail Smelter case (United States, Canada), 16 April 1938 and 11 March 1941. Vol. III. – United Nations, 2006. – B. 1933.

¹⁷ Brown Weiss E. The Trail Smelter Legacy in the Field of Transboundary Air Pollution // International Environmental Law. London: Ashgate, 2006. P. 278.

¹⁸ Odum E.P. Fundamentals of Ecology. 3rd ed. Philadelphia: Saunders, 1971. P. 45.

¹⁹ X.M.Yunusov. Atrof-muhitga transchegaraviy ta'sir orqali yetkazilgan zarar uchun xalqaro-huquqiy javobgarlik. Xalqaro munosabatlar fanlararo ilmiy-nazariy jurnal.- 3-4 /2020. № 81-82.

²⁰ 26. Treves T. Customary International Law // Max Planck Encyclopedia of Public International Law. Oxford: Oxford University Press, 2008. P. 234.

Takliflar va yechim yo‘llari

Xalqaro Atrof-muhit Sudi yaratish;

Ko‘plab olimlar tomonidan taklif qilinayotgan bu institut transchegaraviy ekologik nizolarni hal qilishda ixtisoslashgan bo‘ladi. Gollandiyalik huquqshunos Philippe Sands bunday sudning zarurligini “zamonaviy ekologik muammolarning murakkabligi va xalqaro xarakteri” bilan asoslaydi²¹.

Global kompensatsiya fondini tashkil etish;

Barcha davlatlarning ishtiroki bilan global miqyosdagi atrof-muhit zararini qoplash fondi yaratish taklifi ilgari surilmoqda. Bu fond quyidagi manbalardan shakllanishi mumkin:

- Davlatlarning majburiy badallari
- Xalqaro korporatsiyalarning badallari
- Ekologik soliqlar

Preventiv javobgarlik mexanizmini joriy etish;

Zarar yetkazishdan oldin xavfli faoliyat yurituvchi subyektlar tomonidan kafolat summolari to‘lash tizimini joriy etish.

XULOSA

Atrof-muhitga yetkazilgan zararni baholash va kompensatsiya qilish masalasi xalqaro huquqning eng murakkab va dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

1. Nazariy asoslar - Hozirgi kunda xalqaro huquqda atrof-muhit zararini baholashning yagona metodologiyasi mavjud emas. “Ifloslantiruvchi to‘laydi” prinsipi keng e’tirof etilgan bo‘lsa-da, uning amaliy tatbiqi jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda.
2. Amaliy mexanizmlar - Ikki tomonlama kelishuvlar va ko‘p tomonlama fondlar muayyan samaradorlikka ega bo‘lsa-da, global miqyosdagi muammolarni hal qilish uchun yetarli emas. IOPC Fund kabi maxsus fondlar o‘z sohasida ijobiy natijalar bermoqda.
3. Sud amaliyoti – Xalqaro sud (ICJ), arbitraj sudlari va regional sudlarning qarorlari atrof-muhit zararini baholash va kompensatsiya qilish huquqining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shmoqda. Biroq, sud qarorlarining ijro etilishi masalasi hali ham muammo bo‘lib qolmoqda.
4. Zamonaviy muammolar - Ilmiy noaniqlik, metodologik kamchiliklar va huquqiy bo‘shliqlar samarali kompensatsiya mexanizmlarini yaratishga to‘sqinlik qilmoqda.

Xalqaro atrof-muhit huquqining kelajakdagi rivojlanishi uchun quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- Yagona xalqaro metodologiya ishlab chiqish;
- Ixtisoslashgan xalqaro sud tizimini yaratish;

²¹ Sands P. International Environmental Litigation and Its Future // University of Richmond Law Review. 1999. Vol. 32. P. 1619-1642.

- Global kompensatsiya mexanizmlarini joriy etish;
- Preventiv choralarni kuchaytirish;
- Davlatlararo hamkorlikni faollashtirish;

Atrof-muhit muammolarining global xarakteri hisobga olinsa, ushbu masalalarni hal qilish faqat davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari orqali mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X.M.Yunusov. Atrof-muhitga transchegaraviy ta'sir orqali yetkazilgan zarar uchun xalqaro-huquqiy javobgarlik. Xalqaro munosabatlar fanlararo ilmiy-nazariy jurnal.- 3-4 /2020. № 81-82.
2. Birnie P., Boyle A., Redgwell C. International Law and the Environment. 3rd ed. Oxford: Oxford University Press, 2009. P. 89.
3. Sands P. Principles of International Environmental Law. 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2012. P. 156.
4. Brown Weiss E. International Environmental Law: Contemporary Issues and the Emergence of a New World Order // Georgetown Law Journal. 1993. Vol. 81. P. 675-710.
5. ILC Draft Articles on Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities. UN Doc. A/56/10, 2001.
6. Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. Chicago: University of Chicago Press, 1984. P. 142.
7. Boyd J. The Nonmarket Benefits of Nature: What Should be Counted in Green GDP? // Ecological Economics. 2007. Vol. 61. P. 716-723.
8. Stewart R.B. Economic Incentives for Environmental Protection: Opportunities and Obstacles // Environmental Law and Policy: Nature, Law, and Society. 4th ed. 2010. P. 234.
9. OECD Recommendation on Guiding Principles concerning International Economic Aspects of Environmental Policies. C(72)128, 1972.
10. Prieur M. Droit de l'environnement. 6ème éd. Paris: Dalloz, 2011. P. 167.
11. Canada-United States Air Quality Agreement, 1991. Can. T.S. 1991 No. 3.
12. Swaigen J. Transboundary Environmental Cooperation // Canadian Environmental Law. 2nd ed. Toronto: Butterworths, 1993. P. 445.
13. International Convention on the Establishment of an International Fund for Compensation for Oil Pollution Damage, 1971. 1110 UNTS 57.
14. Handl G. Chernobyl: Radiological Consequences for Third States // Environmental Policy and Law. 1988. Vol. 18. P. 50-55.
15. Sand P.H. Compensation for Environmental Damage from the 1986 Chernobyl Nuclear Accident // Environmental Policy and Law. 2005. Vol. 35. P. 123-128.
16. Umwelthaftungsgesetz (Environmental Liability Act), Germany, 1990. BGBl. I S. 2634.

-
17. <https://www.undp.org/ukraine/projects/environmental-damage-assessment>
 18. <https://ijc.org/en/mission/air-quality-agreement#:~:text=Signed%20in%201991%2C%20The%20Canada,every%20two%20years%20on%20progress.>

